



BADIY MATNDA METAFORA VA O'XSHATISHLAR (ABDULLA QODIRIY ASARLARI MISOLIDA)

Turdiqulova Rayxon Turdiqul qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning ba'zi kichik asarlarida metaforalarning qo'llanilishi tahlil qilingan. So'zlar asl ma'nosidan tashqari ko'chma ma'no ham anglatishi mumkin. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. "So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda predmet va hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi". Ko'chma ma'noli so'zlar tabiat manzaralarini chizishda, qahramonlarning ichki dunyosini ochishda, lirik chekinishlarda muhim stilistik vazifa bajaradi. Ma'no ko'chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik va boshqa turlarini uchratish mumkin. Ulkan so'z san'atkori A.Qodiriy asarlarini lingvoepik tahlil qilganimizda ularning barcha ko'rinishlari mavjudligiga guvoh bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *Ko'chma ma'no, metafora, maqol, hikoya, sarlavha, yakun, o'z ma'nosi, ko'chma ma'no, tana qilmoq, kinoya, Abdulla Qodiriy.*

Аннотация: *В статье анализируется использование метафор в некоторых коротких произведениях Абдуллы Кадыри. Слова могут иметь не только буквальное, но и переносное значение. Буквальное значение возникает из буквального значения слов в языке. "Когда слова используются в переносном смысле, они не только называют предметы и события, но и служат для описания этих предметов и событий". Слова с переносным значением играют важную стилистическую роль в изображении природных ландшафтов, раскрытии внутреннего мира персонажей, в лирических*



отступлениях. Вы можете обнаружить метафору, метонимию, синекдоху, сравнение и другие типы переноса смысла. Анализируя творчество великого поэта А. Кадыри с лингвистической и эпической точки зрения, мы видим существование всех их проявлений.

Ключевые слова: переносное значение, метафора, пословица, рассказ, название, концовка, самосмысл, переносное значение, воплощение, ирония, Абдулла Кадыри.

Abstract: This article analyzes the use of metaphors in some of Abdulla Qodiri's short works. Words can also have figurative meanings in addition to their literal meaning. The figurative meaning arises on the basis of the literal meaning of words in the language. "When words are used figuratively, they not only name objects and phenomena, but also serve to describe those objects and phenomena." Words with figurative meanings play an important stylistic role in depicting natural landscapes, revealing the inner world of characters, and in lyrical digressions. One can encounter metaphor, metonymy, synecdoche, simile, and other types of meaning transfer. When we analyze the works of the great word artist A. Qodiri in a linguo-epic manner, we witness the existence of all their manifestations.

Keywords: figurative meaning, metaphor, proverb, story, title, ending, self-meaning, figurative meaning, incarnation, irony, Abdulla Qodiri.

So'zlar asl ma'nosidan tashqari ko'chma ma'no ham anglatishi mumkin. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. "So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda predmet va hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi". Ko'chma ma'noli so'zlar tabiat manzaralarini chizishda, qahramonlarning ichki dunyosini ochishda, lirik chekinishlarda muhim stilistik vazifa bajaradi. Ma'no ko'chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik va boshqa turlarini uchratish mumkin.



Ulkan soʻz sanʼatkori A.Qodiriy asarlarini lingvoepik tahlil qilganimizda ularning barcha koʻrinishlari mavjudligiga guvoh boʻlamiz. Quyida bularga toʻxtab oʻtamiz.

Metafora nom koʻchishi emas, balki maʼno koʻchishidir, chunki soʻz ichki semalardan tashkil topadi. Mana shu semalar birlashib yaxlit leksik birlikni tashkil etadi. Masalan: “qotmoq”;

a) maʼlum bir harakatsiz holatga kelmoq;

b) maʼlum bir oʻrindan jilmaslik;

d) maʼlum bir oʻringa aloqadorlik.

Bu semik qatorni yana davom ettirish mumkin. Ushbu semalarning maʼlum biri koʻchadi, nom esa shu maʼnosini yetaklab yuradi, xolos. “U tarrakdek qotib qoldi” ushbu gapda maʼlum bir maʼno, yaʼni qattqlik maʼnosi koʻchgan. Abdulla Qodiriyning “Uloqda” va “Jinlar bazmi” hikoyalarida yuqorida qayd etilgan koʻchma maʼnodagi bir qator soʻzlarni koʻrishimiz mumkin.

Metafora yoʻli bilan maʼno koʻchishi. Biz “Uloqda” hikoyasidagi oʻzaro oʻxshashlik asosida maʼno koʻchadi:

a) oʻrin jihatdan oʻxshashlik asosida maʼno koʻchadi.

“Akamlar sadaning ostiga-samovarchining palosiga otdan qoʻndilar”;

“...uloq oʻrtaga kirmagan edi”;

“arava yoniga keldim” kabi gaplarda “ostiga”, “oʻrtaga”, “yoniga” kabilarda oʻrin jihatdan oʻxshashlik asosida maʼno koʻchishi mavjud.

“Jinlar bazmi” hikoyasida ham bunday holat kuzatiladi.

“Koʻrpacha labiga choʻkdim”, “...bogʻ qoshida aylanib ancha aylanib qoldim”,

“Tokning boshidan ushlab asta bogʻlay boshladim” kabi gaplardagi “lab”,

“qosh”, “bosh” soʻzlarida oʻrin jihatdan oʻxshashlik asosida maʼno koʻchishi mavjud.

b) shakl jihatdan oʻxshashlik asosida maʼno koʻchadi. “Uloqda” hikoyasida shakl oʻxshashligi asosida maʼno koʻchgan.



“...ko’kragi ochig’i Salim chavandoz edi”, “...samovarning og’zida choy qaynar edi” kabi gaplarda yuqoridagi kabi gaplarda yuqoridagi kabi ma’no ko’chishini ko’rish mumkin.

“Qosh qorayib, qorong’i tushgan paytda arang poya ishidan qutuldim”, “...tok ko’zi ancha yiriklashib qolgandi” gaplarida “qosh” va “ko’z” so’zlarida shakl o’xshashligi asosida ma’no ko’chishi mavjud. d)belgi jihatdan o’xshashlik asosida ma’no ko’chishi mavjud.

“...otni qattiq choptirma”;

“...kiyimlaringni pes qilib kelma”;

“...girdig’umdan kelgan, yerdan bichib olgandek yigit-a?”;

“...uzoqqina suhbatlashib o’tirgandan keyin ...”, “...umri boqiy bo’lsa hech gap emas...”;

“...ozgina “shayton yig’i” qilib olgandan keyin...” kabilarda;

“Jinlar bazmi” hikoyasidagi “Uzoq o’ylab o’tirmay, tut, qayrag’och va tol kabi daraxtlardan istak chilpidim”;

“Qarshimdagi maydondan o’tkir nur tushar edi”;

“Siz bilasiz, bizning bog’ning tevaragi quruq maydonlar bilan o’ralgan”;

“Sozlar sozlandilar, bir xil bosiq, og’r mashq chalina boshlandi”, “uzoq yig’ladim”;

“...mayin kuy ta’sirida ohista chayqalardim” gaplarida “o’tkir”, “quruq”, “bosiq”, “og’ir”, “uzoq” so’zlarida shunday holatni kuzatish mumkin.

d)vazifa o’xshashligi asosida ma’no ko’chishi mavjud. “Uloqda” hikoyasida “So’z urinib, yana Mahkam akamning ustida to’xtaldi...”;

“...otga birdan shartillatib qamchi berdi va qushdek uchib ketdi”;

“Akamlar sadaning ostiga – samovarchining palosiga otdan qo’ndilar”;

“Birisi: “Bugun uloq qizimaydi”, - desa, ikkinchisi: “Bekor aytibsan, bugun uloq qiziydi”, -deydi”;



”...Salimning oti qozoqi ot, qamchi ko’tarmaydi” gaplaridagi “to’xtaldi”, “berdi”, “uchib ketdi”, “qizimaydi”, “ko’tarmaydi” kabi so’zlarda;

“Jinlar bazmi”da esa “...vujudimni qo’rquv o’rab olardi”;

”Tiriklik bilan ovora bo’lib, bog’ning poyasiga vaqtida qarolmadim”;

”Qosh qorayib, qorong’i tushgan paytda arang poya ishidan qtutuldim”;

“Yuz-qo’llarimni yuvib, salla-choponimni kiyganimda obdon qorong’i bosgan edi”;

”Men bog’dan chiqqanda, xufton bo’lmasa ham, shunga yaqinlashib qolgan edi”;

”Sozandalar sozlarini to’g’rilay boshladilar” kabi gaplarda “o’rab olardi”, “qarolmadim”, “qutuldim”, “bosgan edi”; “yaqinlashib qolgan edi”; “to’g’rilay boshladilar” so’zlarida vazifa jihatdan o’xshashlik asosida ma’no ko’chgan.

Metafora aslida nomi yo’q narsa-tasavvurlarga nom berish, ularni atashning eng muhim vositalaridan biridir. Ammo bu vositadan foydalanish ana shu ehtiyojgagina bog’liq emasligini, u inson tabiatidagi obrazli ifodadagi o’chlik bilan aloqadorligini, nomi bor narsalarni ham metaforik yo’l bilan ifodalashga insonda ichki bir tabiiy intilish mavjudligini mutaxassislar alohida ta’kidlaydilar. Metaforalar, ayniqsa, muallif tomonidan beriladigan o’z metaforalari ko’proq estetik maqsad, ya’ni borliqni subyektiv munosabatni qo’shib hisoblagan holda nomlash yuzaga keladi. Shuning uchun ularda doimo konnotativ ma’no mavjud bo’ladi. Asarlarda an’anaviy metaforalar ham, muallifgagina xos bo’lga xususiy metaforalar ham mavjud. Abdulla Qodiriy an’anaviy metaforalarni ham shunday kontekstlarda ishlatadiki, ular kitobxon uchun tanish bo’lsa-da, matnda mahorat bilan tanlangan boshqa so’zlarning mazmuniy ta’siriga ko’ra yangi ma’no qirralari, ifoda semalari bilan boyiydi. Masalan: ”Bir qarasang, tuprog’ingning ichidan G’oro’g’li Sultonbek bo’lib haligi afanding chiqib keladi. Ha, dedim, mondaho, absakchi yo’qmi. Xumsangning avzoyi buzuq: Ko’chani changitgan kim?-dedi. Juda it aft!”. Metaforik ma’noda qo’llangan “it” so’zi bog’lanib kelgan



“aft”so’zi metaforik ma’nodagi ifoda semalarini yanada kuchaytirgan,”holati yuqori darajada yomon”, “salbiy holati yuqori” bo’lgan xususiyatga ega kabi semalar bilan boyigan.An’anaviy metafora go’yoki yangidan yaratilgan.

Abdulla Qodiriyning o’zigagina xos bo’lgan xususiy muallif metaforalari tasvirning tiniqligi,obrazliligi va ta’sirchanligini ta’minlash uchun xizmat qilgan.”G’urbat” so’zi bir necha metaforik ko’chma ma’nolarda qo’llanadi, ”g’urbat dunyo” kabi.Ammo A.Qodiriy bu so’zni hech bir so’z san’atkori qo’llamagan metafora bilan ishlatgan.”Ammo to’y qilaturgan pulingni ko’makka ber deyilmabdi-ku?Bas, shundoq bo’lgandan keyin,”Mushtum” nega g’urbat qiladur? Biz ham besh kunlik dunyoda bola-chaqamizning orzu-havasini ko’raylik.Chiq eshikka, ey! Tuf betingga,ey!..”(113) Bu matndagi “g’urbat” so’zi birovga nisbatan aytiladigan va birovga salbiy ta’sir etishi mumkin bo’lgan xabar ma’nosini bermoqda.Qahramonga ta’sir etish va matnning badiiy qiymati,muallifning maqsadini aniq va bo’yoqdorlik berish maqsadida shu so’zdan mohirona foydalana olgan. Asarlarda yaratilgan metaforalar o’sha davr ijtimoiy hayotida yangi kirib kelgan tushunchalarni so’zlar bilan ham berilgan.”Oxund domlamiz oq podshoni o’rnidan tushirilib, Kerenskiyning podsho ko’tarilganini “bo’libdur, bo’libdur endi” bilan zihnga sig’dirsa-da, haligi “yangi saylov”ni sira miyasiga sig’dira olmadi.Uning nazarida, “yangi saylov - bir purtortur”, tar-tar qilib o’tib ketadurgan”(18) parchasidagi o’sha davr uchun yangi bo’lgan purtortur(traktor) so’zining metaforik ko’chma ma’nosi “ yoqimsiz baland ovozning bir boshlanib, darrov tugashi” bo’lib, juda kuchli ifoda semasiga va obrazliligiga ega. Asarda muallif metaforalarni faqt ot so’z turkumida emas, balik turli turkumlari doirasida ham kuzatiladi. Fe’l so’z turkumiga oid ham adibning o’ziga xos metaforalari uchraydi.”Mekalayingni oq soqqa, qora soqqa saylovi esimga tushsa, azbaroyi xudo, fe’lim aynaydi. Qonim qaynab, og’zim yugurgilab qoladi. He sani o’sha sayloving bilan...”(7) Asarlarda nafaqat ot va fe’l so’z turkumiga oid, balki sifatga oid bo’lgan ko’chish turlari ham mavjud.Sifatga oid



metaforalarning birgapning turli o'rinlarida berilishi holatni yanada bo'rttiradi, tasvirni jonlantiradi. "Qarshimdagi maydonda o'tkir nur sharpasi tushar edi. Bugina emas, kishilarning chag'ir-chug'ur so'zlashib kulishlari, gijbang-gijbang childirma, ora-chora dutor, tanbur, g'ijjak kabi sozlarning zaif, ammo deonavash va dilni qitiqlaytirgan tovushlari eshitilar edi"(3).

Xulosa qilib aytganda, metaforalar qahramonlarning ruhiy dunyosini ochib berishda, davr tasvirini keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'quvchiga badiiy-estetik ta'sir ko'rsatishda eng zaruriy omil vazifalardan birini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qodiriy "Diyori bakr", Toshkent, Yangi asr avlodi, 2007-yil
2. Mirzayev T. "O'zbek xalq maqollari". -Toshkent: 2003.
3. O'zbek xalq maqollari. -Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
4. O'zbek xalq maqollari. - Toshkent: Sharq 2012
5. O'zbek xalq maqollari. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
6. O'zbek xalq maqollari. II tomli. - Toshkent: O'zbekiston fan nashriyoti, 1988
7. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani . -T.: 2001
8. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Nega shunday deymiz? O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988
9. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh., Hikmatnoma, - Toshkent, 1990



10. Mirzaeva, D. (2021). THE ROLE OF PAREMIA IN THE SYSTEM OF NATIONAL CULTURAL HERITAGE. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(3).

11. Mirzayeva, D. (2019). Proverb as a kind of paremiological fund and as an object of linguistic and methodological research. Мировая наука, (11 (32)), 33-36.

12. Abdullayeva, N. A., & Mirzayeva, D. I. (2022). ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA MAQOL VA MATALLARNING QO'LLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 64-69.